



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19509865>

“O‘qish savodxonligi” darslarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashdagi o‘rni

Zulfiyaxon To‘ychiyeva Abdulxamid qizi –
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zulfiyatoychiyeva40@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-7796-2328>

***Annotatsiya.** Globallashuv sharoitida zamonaviy ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi qo‘yilmoqda. Psixologik nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “ijodkor” sanaladi. Chunki ularning ongida kechadigan fikriy jarayon “hech qanday to‘siqqa uchramaydi”, xayoliga kelgan fikrni ikkilanmay bayon qiladi. Bu esa o‘quvchilarning mazkur psixologik xususiyatiga tayangan holda ularning ijodiy qobiliyatini tizimli rivojlantirishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘z vaqtida ko‘ra olish va rivojlantirish bo‘yicha kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlari zarur. Shu bilan birga o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda “O‘qish” fanining badiiy-didaktik imkoniyatiga tayanib ish ko‘rishlari zarur. Zero, aynan “O‘qish” darsligiga kiritilgan badiiy matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy jarayon bilan yanada yaqinroq tanishtiradi. Maqolada “O‘qish” fanining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashdagi o‘rni baholangan.*

***Kalit so‘zlar:** “O‘qish” fani, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ijodkorlik, qobiliyat, ijodiy qobiliyat, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.*

«Читательской грамотности» в воспитании учащихся начальных классов как творческой личности

***Аннотация.** В условиях глобализации перед современной системой образования ставится задача воспитания учащихся как творческих личностей, обладающих способностью к самостоятельному мышлению. С психологической точки зрения учащиеся начальных классов считаются “творческими”, поскольку*

мыслительные процессы, происходящие в их сознании, не сталкиваются с какими-либо ограничениями, и они без колебаний выражают возникающие у них мысли. Это, в свою очередь, требует системного развития их творческих способностей с опорой на данные психологические особенности. Учителя начальных классов должны обладать профессиональной компетентностью в своевременном выявлении и развитии творческих способностей учащихся. Вместе с тем, в процессе развития творческого потенциала учащихся необходимо опираться на художественно-дидактические возможности предмета “Чтение”. Ведь именно художественные тексты, включённые в учебник “Чтение”, способствуют более глубокому приобщению младших школьников к творческому процессу. В статье оценивается роль предмета “Чтение” в воспитании учащихся начальных классов как творческих личностей.

Ключевые слова: предмет “Чтение”, учащиеся начальных классов, творчество, способность, творческие способности, развитие творческих способностей у младших школьников.

The role of “Reading literacy” lessons in developing primary school students as creative individuals

Annotation. *In the context of globalization, the modern education system faces the task of fostering students as creative individuals capable of independent thinking. From a psychological perspective, primary school students are considered “creative,” as the cognitive processes occurring in their minds are not constrained by any limitations, and they express their thoughts freely and without hesitation. This, in turn, necessitates the systematic development of their creative abilities based on these psychological characteristics. Primary school teachers must possess professional competence in the timely identification and development of students’ creative abilities. At the same time, in developing students’ creative potential, it is essential to rely on the artistic and didactic possibilities of the subject “Reading”. Indeed, the literary texts included in Reading textbooks contribute to a deeper engagement of younger students in the creative process. The article evaluates the role of the subject “Reading” in fostering primary school students as creative individuals.*


Keywords: *subject “Reading”, primary school students, creativity, ability, creative abilities, development of creative abilities in primary school students.*

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziquvchanlik, intellektual faollik, xayolotining kengligi, fikrlash jarayonida har qanday psixologik to‘siqlarni inkor qilish, ijtimoiy va tabiiy borliqni anglashga bo‘lgan intilish, turli vaziyatlarda o‘zini sinab ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoq, real voqea-hodisalarni tasvirlashga ijodiy yondashish, badiiy idrok qilish, kutilmagan assotsiatsiyalar yordamida ta’riflash kabi psixologik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi ularning ijodiy qobiliyatga egaliklaridan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“O‘qish” fanining umumiy tavsifi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda quyidagi imkoniyatga egaligini ko‘rsatadi (1-rasm):



1-rasm. “O‘qish” fanining tarbiyaviy imkoniyatlari

I. Badiiy tasavvur (xayolot)ni rivojlantirish. Kichik maktab yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri – bu ularning tasavvur olamining kengligi bo‘lib, u yordamida xayolda yangi obrazlarni yaratish, o‘zini o‘zi amaliy harakatga undash, o‘zini o‘zini qo‘llab-quvvatlash, o‘ziga ishonch bildirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladiki, buning natijasida mustaqil shaxs shakllanadi. “O‘qish” darslari bevosita o‘quvchilarda badiiy tasavvur (xayolot)ni rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega.

Kichik maktab yoshidagi bolalar nafaqat turli ertak qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, xulqi va harakatlari asosida tasavvur qiladi, balki ularning o‘rnilarida o‘zlarini tasavvur qiladi, xayolan ularning xatti-harakatlarini takrorlaydi. Psixologik jihatdan ushbu holat o‘quvchilarni real vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengish, sabrli, chidamli bo‘lishga undaydi. Ertak, hikoya, she‘r bilan tanishish, o‘qilgan matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan hikoya qilish yoki uni davom ettirish topshiriqlarini bajarish o‘quvchilar ongida turli obraz va manzaralarni yaratish bilan birga ularning xayolotini, ayniqsa, ijodiy xayoloti (fantaziyasi)ni boyitadi.

Xoh nasriy xoh nazmiy asarlar yordamida ifodalangan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarni o‘z fikrlarini vizual ifodalash (mos rasmlarni chizish)ga undash ular vizual tasavvurni hosil qiladi.

Ayni o‘rinda “vizual tasavvur” tushunchasining mohiyati yoritib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun dastlab “tasavvur” atamasini nazariy jihatdan ta’riflash talab etiladi.

Tasavvur – “inson sezgi a’zolariga ta’sir qilib, miyada saqlangan hosilalari asosida borliqdagi narsa va hodisalarning qayta tiklangan obrazi; xayol surish, izlash, izlanish, tadqiq etish natijasida paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ular majmuini ifodalovchi tushuncha” [11]; “narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarini eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayoni” [12]; “hali idrok etilmagan obyekt, harakat, vaziyatlarni ongda ifodalash (fikriy gavdalantirish) qobiliyatiga egalik bo‘lib, shaxsning tasavvur qilish faoliyati allaqachon ma’lum bo‘lgan tasvirlarning kombinatsiyasiga yoki yangi tasvirlarning yaratilishiga hamda ular orasidagi bog‘liqliklarga asoslanadi” [4, – c. 40].

Demak, tasavvur inson tomonidan sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, his qilish (teri orqali) tomonidan qabul qilingan tashqi omillar hamda ichki psixologik imkoniyatlarning o‘zaro birligi, uyg‘unligi natijasida shakllanadi.

Shaxs ongida tasavvurning hosil bo‘lishini ta’minlovchi tashqi omillar va ichki psixologik imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

1. Tashqi omillar: atrof-muhit va hayotiy tajriba; ta’lim jarayoni; madaniyat (tarixiy rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy turmush tarzi, ishlab chiqarish, shu jumladan, milliy hunarmandchilik) va san’at (xalq og‘zaki ijodi (folklor), badiiy adabiyot, qo‘shiqchilik, raqs, teatr, kino, sirk, ommaviy tomoshalar); ijtimoiy munosabatlar va muloqot; media).

2. Ichki psixologik imkoniyatlar: shaxsning xotirasi (eslab qolish) va fikrlash qobiliyatlari, hissiyoti (quvonishi, hayratlanishi, minnatdorlik tuyg‘usiga egaligi,

qayg‘urishi, ranjishi, xafa bo‘lishi, g‘azablanishi, nafratlanishi, noshukurlik qilishi, hasad tuyg‘usiga egaligi), irodasi (chidamli, sabrli, qanoatli, intizomli, optimist (o‘ziga va o‘z kuchiga ishonishi, faqat yaxshilikni ko‘ra olishi) ekani, faolligi (g‘ayratli, shijoatli, qat‘iyatli, tirishqoq, tashkilotchi, tashabbuskor ekani), qiziqish va motivatsiyasi, individual xususiyatlari (temperamenti (mijozi), muayyan qobiliyatlarga egaligi, iqtidorli (alohida ajralib turuvchi qobiliyat egasi) ekani.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda tushunchaga shunday ta‘rif berish mumkin: tasavvur – tashqi omillar va psixologik ta‘sir orqali shaxs tomonidan qabul qilinayotgan ijtimoiy va tabiiy borliqning ongda qayta tiklangan yoki tiklanadigan obrazi.

Vizuallik (ingl. “visual”) – ko‘rish mumkin bo‘lgan, ko‘rinadigan [3]; real voqelikning “xayoliy, ramziy obraz, tasvir, sxema, model kabilarda” [5, . – c. 15] ifodalanishi; ijtimoiy va tabiiy borliqni ko‘rish (ko‘z imkoniyati) orqali qabul qilinadigan muayyan shakldagi tasvirlar, obrazlar orqali yoritilishi va qabul qilinishi.

Vizualashtirish – “aqliy, og‘zaki tasvirlarni vizual tasvirlarga o‘girish jarayoni [2].

Vizual tasavvur – tashqi omillar va psixologik ta‘sir orqali shaxs tomonidan qabul qilinayotgan ijtimoiy va tabiiy borliqning ongda vizual (shakliy-ifodaviy) ko‘rinishda qayta tiklangan yoki tiklanadigan obrazi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vizual tasavvurga ega bo‘lishlari ularning quyidagi ko‘nikma va malakalarga egaliklarida namoyon bo‘ladi: atrof-muhitni ko‘ra olish, uni muayyan shakldagi ramzlar, tasviriy obrazlar yordamida ifodalash (rasm chizish; narsalarni ularning shakli, rangi, hajmi kabi belgilarga ko‘ra farqlash hamda ular o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni ko‘ra olish asosida taqqoslash va ajratish; hikoya, ertak yoki she‘rlarda ifodalangan g‘oyalarni xayolan “ko‘ra olish”, qahramonlar qiyofasi, liboslari, xatti-harakatlarini, voqealar, ularning kechishini tasavvur qilish orqali yangi obrazlarni yaratish; ko‘rgan tasviriy vositalar (rasm, predmet yoki shaxslar)ni eslab qolish hamda ma‘lum vaqtdan keyin ularni qayta tasvirlab berish yoki rasmlar yordamida ifodalash; kubik, lego, mozaika (naqshga o‘xshab ishlangan tasvir), naqshli shakl (pazl)lar, shuningdek, qurilish o‘yinlari, qum, loy va plastilin yordamida obyektlarni tuzish va joylashtirish; geometrik shakllarni tanish, yaxlit tasvirlangan geometrik shakllarni bir-biridan ajrata olish yoki alohida geometrik shakllarni birga qo‘shish orqali yangi shakllarni hosil qilish; fazoviy fikrlash qobiliyati (“o‘ng”, “chap”, “yuqori”, “past” kabi tushunchalarni anglash, geografik makon (hudud)da to‘g‘ri yo‘nalish olish).

II. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish. Har bir shaxsda muayyan darajada hamda turdagi qobiliyatning asosi mavjud bo‘ladi. Ota-onalar va pedagoglar oldida pedagogik jarayonda shaxs ega bo‘lgan qobiliyatni ro‘yobga chiqarish vazifasi turadi. Ularning yetarli darajada pedagogik, psixologik bilimlarga egaliklari ta‘lim oluvchilarning mavjud qobiliyatlarini o‘z vaqtida anglash, mustahkamlash hamda yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsning psixologik, fiziologik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiluvchi qobiliyat u yoki bu ko‘rinishdagi faoliyat “ko‘nikma, malakalaridan farqlanadi” [16].

D.B.Bogoyavlenskaya fikriga ko‘ra, ijodiy qobiliyat ijtimoiy subyektning voqea, “hodisa, jarayon va obyektlarning ahamiyatini tushungan holda uning oldida to‘siq bo‘layotgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish yoki muammoni yengishga intilish layoqatiga egalikni anglatib, muayyan turdagi ijodiy faoliyatning samarali bajarilganini aniqlovchi individual xususiyati” [9]; “shaxsning turli xil ijodiy faoliyatni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatini belgilovchi individual xususiyatlari va fazilatlarini” [7, – c. 169-170] hisoblanadi.

Maqsadli ravishda shaxs tomonidan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatning samarasi sifatida moddiy “predmetni, mavjud borliqni, shaxsning borliqqa bo‘lgan yangi munosabati

o‘zgartiruvchi yangilikning ilgari suruvchi tafakkur negizida zamonaviy qarash ilgari suriladi”. Demak, ijodiy qobiliyat shaxsga xos individual xususiyat bo‘lib, u tomonidan tashkil qilinadigan faoliyatning muvaffaqiyati hamda yakunini ifodalash bilan birga nostandart yechim (mahsulot, g‘oya)larni taqdim etilishini ta‘minlaydi.

Ijodiy qobiliyat shaxsning individual psixologik-fiziologik xususiyatlari, tafakkuri hamda faoliyati (fikrlash, idrok etish, hayotiy tajribasi, motivatsiyasi bo‘yicha ro‘y bergan o‘zgarishlar)ning sintezi (yangi muammolar, vazifalarni hal qilish) jarayonida yangi sifatlar shakllangan holda jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi, subyektiv yoki obyektiv xarakterga ega yangi mahsulot (g‘oya, obyekt, san‘at asari va boshqalar) paydo bo‘lishiga olib keladi [6, – c. 6]. Bu fikrni N.V.Kondrateva tomonidan ilgari surilgan qarash ham tasdiqlaydi. Ya‘ni, “psixologik va pedagogik adabiyotlarda ijodiy qobiliyatlar (ijodkorlik, ijodkorlik) universal kognitiv qobiliyat, muammolarga sezgirlik, qiyin vaziyatlarda mustaqillik, umumiy aqliy qobiliyatning tarkibiy qismi, aqlga kamaytirib bo‘lmaydigan sifat, muammolar va muammolarni hal qilishning yangi usullarini kashf etish, yangilarini yaratish qobiliyati sifatida qaraladi [13, – c. 188].

Boshlang‘ich ta‘lim davri o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun eng qulay davr sanaladi. Binobarin, bu yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari – qiziquvchanligi, harakatchanligi, xayolot olamining boyligi ularni ijodiy faoliyatga faol jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

“O‘qish” fanining o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: tafakkur (fikrlash qobiliyati)ni rivojlantirish; tasavvur va xayolotini boyitish; nutqi, fikrni ifodalay olish, mustaqil fikr yuritishni qobiliyatini oshirish; estetik didini tarbiyalash; lug‘at boyligini oshirish. Shu bois maktabda va oilada bolalarning ijodiy qobiliyatini oshirishni e‘tibor qaratish talab qilinadi.

III. Axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Zamonaviy media makonda samarali faoliyat yurita olish uchun har bir shaxs tomonidan axborot bilan ishlash ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtira olishi talab qilinadi. Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni axborot bilan oqilona ishlashga o‘rgatish esa ular vaqtini tejash, faqatgina foydali ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, bilim va dunyoqarashlarining boyitilishiga yordam beradi. Shu sababli bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik faoliyatining yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarda axborot bilan ishlash ko‘nikmasi (keyinchalik axborot madaniyati)ni shakllantirishdan iborat bo‘lishi tobora dolzarflik kasb etmoqda.

“O‘qish” fani o‘quvchilarni axborotni qabul qilishdan tortib, uni tahlil qilish, baholash va ifodalashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda rivojlantiradi. Shu sababli u axborot bilan ishlash malakasini shakllantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Mazkur fan bo‘yicha tashkil qilinadigan darslar umumiy o‘rta ta‘limning ilk bosqichida o‘quvchilarni nafaqat bosma adabiyotlar, balki elektron kontentlar bilan ishlashga doir amaliy-metodik bilimlar bilan tanishtirib borish ularni media muhitda axborotlar bilan tanishish madaniyatiga ega bo‘lishlari uchun dastlabki qadam sanaladi.

Dastlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini global media muhitda faoliyat yuritishda tayyorlashda “O‘qish” darslarining vositasida bir qator muhim tushunchalarni o‘zlashtira olishlari uchun zarur. Bu tushunchalar ularning axborot savodxonligi va xavfsizligini ta‘minlaydi: axborot, kontent, media, Internet, ijtimoiy tarmoq, Telegram va Tik Tok ijtimoiy tarmoqlari, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot, ijtimoiy tarmoqdagi muloqot odobi (netiket), yolg‘on xabarlar, media xavfsizlik, Internetdan foydalanishda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda noma‘lum shaxslar bilan muloqotda ehtiyotkor bo‘lish, kontent (oddiy shaklda matn, rasm yoki videolar yaratish, ularni ulashishda axloq

qoidalariga rioya qilish, axborotdan maqsadli foydalanish.

“O‘qish” darslari o‘zining didaktik imkoniyatiga ko‘ra o‘quvchilarda axborot bilan ishlash qobiliyati negizida aks etuvchi quyidagi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi: axborotni tushunish va qabul qilish; axborotni tahlil qilish; axborotni saralash va tizimlashtirish; axborotni qayta ishlash; manbalar bilan ishlash; tanqidiy baholash; axborotni ifodalash.

IV. Kitobxonlikka o‘rgatish. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini kitobxonlikka o‘rgatishga qaratilgan pedagogik faoliyat mohiyatini, “O‘qish” fanining bu boradagi imkoniyatlarini yoritishdan avval “kitob”, “mutolaa” va “kitobxonlik” tushunchalarining nazariy tavsifini anglab olish talab qilinadi.

Kitobxonlik va mutolaa mavzusiga oid manbalarda “kitob” tushunchasi shunday ta‘riflanadi: kitob (arab. “کتاب” – yozilgan, muqovalangan asar” ma‘nosini anglatib, “ma‘lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 varaqdan kam bo‘lmagan bosma (qadimgi qo‘lyozma) asar” [15, – 376-b.] deya tavsiflanadi. Demak, kitob sifatida e‘tirof qilinishi uchun mahsulot hajm jihatidan ma‘lum talabni qondirishi hamda muayyan juz, ya‘ni, qism, bo‘laklarga ajratilgan bo‘lishi zarur. Bosma manbalarda odatda “juz” atamasi “taboq” deb ham yuritiladi. “Taboq” tushunchasi esa “bichimi (formati) 60×90 sm bo‘lgan qog‘oz varag‘ining bir tomonidagi nusxa” [10] bo‘lib, matn 14 shriftli, standart intervalda yozilgan bo‘lsa, bir bosma taboq taxminan 16-24 sahifani tashkil qiladi.

“Mutolaa” (arab. “عل اطم” (“nutal‘aotum“ ;”hal‘aotum“ ihsiliq‘o)”)– diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish [15, – 655-b.] ma‘nolarini ifodalaydi.

“O‘qish” darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni tarbiyalashda ular tomonidan matnning o‘qish va o‘qilgan matn mazmunini tushunish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu jarayonda o‘qilayotgan matn hamda mutolaa jarayonining zavqli bo‘lishiga erishish zarur. Qachonki, o‘qilayotgan matnlar, keyinchalik esa mustaqil ravishda mutolaa qilinayotgan kichik maktab yoshi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan adabiyotlarning “bolalarni qiziqitira olish, zavqlantirish, hayratlantirish, to‘lqinlantirish” [14; 72-74 b] imkoniyatiga ega bo‘lishi ularda kitobxonlikni samarali rivojlantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotchi D.A.Muminova “kitobxonlik” (yoki “kitobxonlik faoliyati”) tushunchasini shunday ta‘riflaydi: shaxsning kitob tanlash, uni o‘qish, asar g‘oyasi va mazmunini tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, asar syujetiga nisbatan munosabat bildirishdan iborat xatti-harakati [8, – 41-b.]. Darhaqiqat, kitobxonlik D.A.Muminova tomonidan qayd etilgan harakatlar birligidan iborat faoliyat mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Pedagogik manbalarda shaxs kitobxonligi negizida aks etadigan sifat (kompetensiyalar)ning aniqlanishiga ham e‘tibor qaratilgan. Jumladan. A.V.Avdiiyeva, M.V.Molkova kitobxonlik sifatlari (kompetensiyalari)ning quyidagilardan iborat ekanini aytadi: mustaqil kitob tanlay olish; axborot-resurs markazlari (kutubxonalar) xizmatidan foydalana bilish; kitob mutolaa qilishga ijobiy munosabatga ega bo‘lish [1, – c. 45].

“O‘qish” fani o‘quvchilarni kitobxonlikka o‘rgatishda asosiy vosita bo‘lib, u nafaqat o‘qish texnikasini, balki kitobga muhabbat, mustaqil mutolaa va madaniy o‘qish odatlarini ham shakllantiradi. Bu esa o‘quvchining intellektual va ma‘naviy rivojida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarni kitobxonlikka o‘rgatishdagi “O‘qish” fanining didaktik imkoniyatlari quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilishda namoyon bo‘ladi: kitobga va kitob mutolaa qilishga qiziqish uyg‘otish; mutolaa ko‘nikmalari (to‘g‘ri, ravon va tushungan holda o‘qish; matnning g‘oyasining anglash; matnning mazmunini idrok qilish)ni shakllantirish; kitobni

mustaqil mutolaa qilish malakasini o‘zlashtirish; mutolaa uchun kitobni tanlash madaniyatini shakllantirish; o‘qilgan asarning g‘oyasi, mazmunini tushunish va baholash; bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar (bolalar adabiyoti namunalari) to‘g‘risida fikr bildirish; kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish zarur, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni tarbiyalashda “O‘qish” fanidan sinfdan tashqari sharoitlarda tashkil qilinadigan mashg‘ulotlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar tomonidan qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qish, “Kitobxonlik soati” (o‘qilgan kitob (asar)lar bo‘yicha muhokamalarni tashkil etish), “Tez va ifodali o‘qish”, “Sinf kitobxoni” (“Yil kitobxoni”), “Kitobxonlik bo‘yicha bellashamiz!”, “Mening sevimli kitobi”, “Sinfimizda kutubxona tashkil qilamiz” kabi bellashuv, loyihalarni amalga oshirish ularning kitob o‘qitishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiriladi.

XULOSA

Shunday qilib, globallashuv sharoitida zamonaviy ta‘lim tizimi oldida o‘quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy yondashuvga ega shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Psixologik jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash (tafakkur) jarayoni cheklovlersiz kechib, ular o‘z fikrlarini erkin, ikkilanmasdan ifoda etadi. Shu bois psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda bu yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari (badiiy tasavvur hamda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikka o‘rgatish)ni tizimli rivojlantirish talab qilinadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilardagi ijodiy salohiyatni o‘z vaqtida aniqlash va uni rivojlantirish bo‘yicha yetarli kasbiy mahoratga ega bo‘lishlari, “O‘qish” fanining badiiy va didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalana olishlari muhim muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan mana shu fan doirasida taqdim etilgan badiiy matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yaqinlashtiradi va ularning tasavvur doirasini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22. – С. 45.
2. Визуализация (психология) // [https:// ru.ruwiki.ru/wiki/Визуализация_\(психология\)](https://ru.ruwiki.ru/wiki/Визуализация_(психология)).
3. Vizual // <https://uz.wiktionary.org/wiki/vizual>.
4. Данилкина И. И. Визуальное воображение в трансформации культурной среды // Аналитика культурологии. – 2008. – № 10. – С. 40.
5. Колодий В.В. Визуальность как феномен и ее влияние на социальное познание и социальные практики: автореф. ... канд.филос.наук. – Томск: 2011. – С. 15.
6. Кондратьева Н.В. Сущность понятия “творческие способности” // Ж. Концепт. – М.: 2015. - № 09 (сентябрь). – С. 6.
7. Лебишова С.В. Развитие творческих способностей в дошкольном возрасте. // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2024. - № 12 (511). – С. 169-170.
8. Муминова Д.А. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш: пед.фанл.бўйича ... фалс.докт. (PhD) дисс. – Наманган: 2019. – 41-б.
9. Норпўлатова Х. Замонавий педагогикада ижод ва ижодий қобилият масалалари // <https://api.ziyouet.uz/uploads/books/715672/5afe81154ebee.pdf>.
10. Табоқ // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bosma-taboq-uz>.
11. Tasavvur // <https://oyina.uz/uz/teahause/2351>.

12. Tasavvur // <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tasavvur>.
13. Христенко Г.И. Творчество, творческие способности и креативность – как психолого-педагогические категории // Ж. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – Новосибирск, 2011. – № 23. – С. 188.
14. Чернышова С.А., Тарасова А.И. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22 (1). – С. 72-74.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 376-655-б.
16. Қобилият // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qobiliyat-uz>